OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA INNOVATSIYALARNI TIJORATLASHTIRISH MODELLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Mirzayev Djamshid Turdaliyevich
Guliston davlat universiteti
Pedagogika va psixologiya kafedrasi, PhD
Email: mirzjamshid.003@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalarida texnologiyalar transferini yo‘lga qo‘yish, texnologiyalarni tijoratlashtirishning xorijiy modellari va ulardan mamlakatimiz oliy o‘quv yurtlarida foydalanish masalalari tadqiq qilingan.

Tayanch so‘zlar: *Innovatsiya, innovatsiyalar transferi, innovatsiyalarni tijoratlashtirish, innovatsion model, innovatsion tizim, innovatsion infratuzilma.*

Abstract: This article examines the issues of technology transfer in higher education institutions, foreign models of technology commercialization and their use in higher education institutions of our country.

Keywords: *Innovations, innovation transfer, innovation commercialization, innovation model, innovation system, innovation infrastructure.*

Innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish borasida turli oliy o‘quv yurtlari tomonidan foydalaniluvchi yondashuvlarning turli-tumanligiga qaramasdan, tijoratlashtirish modellarining ikki tipini ajratib ko‘rsatishimiz mumkin [1]:

1. ***CHiziqli (jarayonli)*** model vazifa va topshiriqlarning qadamba-qadam bajarilishini ko‘zda tutadi. Ba’zi bir holatda bunday modellar ishlanmalarni muvaffaqiyatli tijoratlashtirish imkoniyatlarini oshirish uchun bir vaqtda bajarilishi lozim bo‘lgan ishlarning bir-birini to‘ldiruvchi sohalarini o‘z ichiga olgan parallel jarayonlarni ishga tushirishni nazarda tutadi.

2. *Funksional model muhim hodisa va jarayonlarni birlashtiradi va ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklarni aks ettiradi.* 1995 yilda X.Rendall Goldsmit [1] tomonidan ishlab chiqilgan va innovatsiyalarning tijoratlashtirilishini ta’min etuvchi ularning texnik jihatlari bilan bozor-biznes jihatlarining o‘zaro uyg‘unligini aks ettiruvchi chiziqli modellardan birini ko‘rib chiqamiz. Mazkur model g‘oyaning yaratilishidan tortib uning rivojlanishigacha, startap yoki spinofflarni yaratish va ishga tushirishdan tortib, ixtirochi va investorlarning loyihadan chiqib ketishigacha bo‘lgan barcha jarayonlarni qamrab oladi. Model mahsulot hayotiy siklining tadqiqotlarni o‘tkazish, tadqiqotlarni texnik jihatdan amalga oshirish, rivojlantirish, joriy qilish, o‘sish, yetuklik kabi bosqichlaridan tashkil topadi. Mazkur model loyihani turli nuqtai nazarlardan qarab chiqish lozimligini ko‘rsatadi:

1) **texnik nuqtai nazardan:** loyihani texnik jihatdan amalga oshirish imkoniyatlarini tahlil qilish, ishchi model, laboratoriya namunasi, tajriba namunasini baholash va sinovdan o‘tkazish, kichik partiyali, keng ko‘lamli ishlab chiqarish uchun testlarni o‘tkazish va uni hayot siklining barcha bosqichlarida qo‘llab-quvvatlash;

2) **bozor nuqtai nazaridan:** muayyan bozorga kirish va chiqish borasidagi xavf va to‘siqlarni tahlil qilish, iste’molchilarni, raqobatchilarni aniqlash, bozor hajmini baholash, marketing strategiyasini shakllantirish, muayyan maqsadli guruhlar bo‘yicha test o‘tkazish, shuningdek mijozlar va hamkorlarning qoniqishlarini baholash, savdo kanallarini kengaytirish, yangi bozorlar va yangi mahsulotlarni tahlil qilish;

3) **ishlab chiqarish nuqtai nazaridan:** tanlangan model asosida potensial tijoratlashtirish va daromad olish modellarini baholash, rivojlanishning turli bosqichlarida moliyalashtirish sxemalari va manbalarini tahlil qilish, jumladan xodimlarni yollash va o‘qitishni e’tiborga olgan holda biznes-reja va tashkiliy tuzilmani shakllantirish, loyihaning har bir bosqichida biznesni rivojlantirish monitoringi.

Goldsmit modeli mutlaqo yangi g‘oyalarni tijoratlashtirish uchun ko‘proq mos keladi va mavjud mahsulot, xizmat va jarayonlarni [2] bosqichma-bosqich modernizatsiya qilishni nazarda tutuvchi inkremental innovatsiyalar uchun mos kelmaydi, degan qarashlar ham mavjud. Goldsmitning o‘zi esa, modelni loyihani rivojlantirishga imkon beruvchi aniq chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish, axborot va texnik ko‘mak ko‘rsatishga bo‘lgan ehtiyojlarni aniqlashtirish, loyihani qayta ishlash uchun talab qilinuvchi xarajatlarga oydinlik kiritish va loyihani amalga oshirish uchun talab etiluvchi mablag‘lar miqdorini bashoratlash maqsadida ishlab chiqilgan va ko‘rsatmalar ketma-ketligidan tashkil topgan “taktik model” sifatida baholaydi [3].

Rotvell va Zegfel’dning chiziqli modeli tijoratlashtirish jarayonining tarkibiy qismlari va ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik mexanizmini aks ettiruvchi blokli diagrammani ifoda etadi.

Goldsmit modeli kabi mazkur model ham izchillik tavsifiga ega bo‘lsada, bunda ishlanmaning texnik tomoni asosiy o‘rin tutadi, unga bir tomondan o‘zgarib boradigan bozor ehtiyojlari ta’sir ko‘rsatsa, ikkinchi bir tomondan esa texnologiyalarning rivojlanishi katta ta’sir ko‘rsatadi. Bu modelda ishlab chiqarish masalalari yodga olinsada, lekin batafsil ko‘rib chiqilmaydi hamda texnik, ishlab chiqarish va bozor omillarining batafsil ro‘yxati ham

keltirilmaydi. Vaqt o‘tib borishi bilan ishlanmalarni tijoratlashtirishdan tushumlar va pul sarflarining o‘zgarishi grafik tarzda aks ettirilgan tijoratlashtirishning Endryu va Sirkin chiziqli modelini ko‘rib chiqamiz [4].

Ordinatalar o‘qida mahsulotni tijoratlashtirishdan olingan mablag‘lar aks ettirilgan. Abssissalar o‘qi tijoratlashtirish jarayonining ketma-ket, ya’ni g‘oyani hosil qilishdan to uni amalga oshirishgacha bo‘lgan bosqichlarni ifodalaydi. Endryu va Sirkin modeli ishlanmalar bilan bog‘liq xarajatlarni qisqartirish maqsadida mahsulotni iloji boricha tezroq bozorga olib chiqish muhimligini, foydalilik va investitsiyalarning tezda qoplanishiga erishish borasida sotish hajmlarini muttasil oshirib borish zarurligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga modelda mahsulotni bozorga olib chiqqandan keyin ham reklama marketing, texnik qo‘llab-quvvatlash orqali qo‘llab-quvvatlash zaruriyati va mahsulotni yaxshilash borasidagi ishlarni to‘xtatmaslikka alohida e’tibor qaratiladi. Mazkur model aniq hatti-harakatlar tartibini belgilab bermasada, ixtirochilar va investorlar e’tiborini tijoratlashtirish jarayonining iqtisodiy jihatlariga qaratadi va quyidagi oddiy: loyihani amalga oshirish vaqt, mablag‘ va hatti-harakatlarni amalga oshirishga arziydimi? degan savolga javob izlab topishni taqozo qiladi [5].

Model doirasida olimlar tomonidan loyihaning dastlabki bosqichida texnik, moliyaviy va marketing ekspertizasini amalga oshirishga qodir bo‘lgan ekspertlarni jalb qilish orqali g‘oyalarning tijorat salohiyatini aniqlash, shuningdek, g‘oyani yanada takomillashtirishdan so‘ng — potensial litsenziatlar va investorlarga taqdim etish jarayonlari qo‘llab-quvvatlanadi. Agar pirovard natijada intellektual faoliyat natijalarini tijoratlashtirish imkoni bo‘lmasa, ular ixtirochiga qayta topshiriladi.

Texnologiyalar transferining zamonaviy xorijiy tajribasini o‘rganish va moslashish zaruriyati mamlakat ilmiy-texnik kompleksi rivojlantirishning eng muhim vazifalaridan biri xisoblanadi. Ma’lumki, so‘nggi yillarda O‘zbekistonda xam bu boradagi ishlarni jadallashtirishga qaratilgan qator ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Yangi ishlab chiqarish texnologiyalarini kengaygirish uchun rivojlangan mamlakatlar amaliyotidagi ilg‘or tajribalardan kelib chiqib ularni qiyosiy va taxliliy o‘rganish asosida davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan va yo‘naltiriladigan texnologiyalar transferi tizimini (TTT) tartibga soluvchi yangi bozor sektorini yaratish zarur.

ADABIYOTLAR:

1. Mirzayev Jamshid Turdalievich. “Social and psychological opportunities of information and psychological security in adolescents” International Conference on Developments in Education. Hosted from Bursa, Turkey. https: econferencezone.org July 15th 2022 45-48 p
https://econferencezone.org/index.php/ecz/article/view/1279

2. Мирзаев, Д., & Наргулова, А. (2022). «Лечение интернет-зависимости. Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы» Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы 1(1), 498–500. извлечено от
https://inlibrary.uz/index.php/zitdmrt/article/view/5217

3. Мирзоев, Д. (2022). “Internet qaramligini shakllanishning sabablari, mexanizmlari va diagnostikasi.” Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы, 1(1), № 1 (2022) 500–503. извлечено от
https://inlibrary.uz/index.php/zitdmrt/article/view/5218.

4. Jamshid Turdaliyevich Mirzayev. Yoshlar ijtimoiy hulq-atvoriga internet muloqoti ta‘sirining psixologik jihatlari. Tashkent Medical Academy Volume 4 | TMA Conference | 2023 Integration of Science, Education and Practice in Modern Psychology and Pedagogy: Problems and Solutions. Volume 4 | TMA Conference | 2023. May 6. 812-816 p. https://cyberleninka.ru/article/n/yoshlar-ijtimoiy-hulq-atvoriga-internet-muloqoti-ta-sirining-psixologik-jihatlari/viewer

5. Mirzayev Jamshid Turdialiyevich. “Psychological aspects of influence of the internet - communication on the social behavior of the youth” / INTELLECTUAL EDUCATION

TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS. International scientific-online conference. 2023. Part 18. JUNE 3rd. 1295-1300 p.

https://interonconf.org/index.php/neth/article/view/5386

6. Mirzayev Djamshid Turdalievich/ PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF INTERNET-COMMUNICATION IN SOCIAL SOCIETY OF YOUTH. The results of the study of Internet addiction on the method of Kimberly-Yang. NEUROQUANTOLOGY | October 2022 | VOLUME 20 | ISSUE 12 | PAGE 3409-3416| DOI: 10.14704/NQ.2022.20.12.NQ77350

https://www.proquest.com/openview/c0c46eaeba7bf0e04fd82a955955a4dd/1?pq-origsite=gscholar&cbl=2035897

7. Mirzayev Djamshid Turdalievich / Psychological aspects of the influence of internet communication on the social behavior of young / PEOPLE SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 3 ISSUE 4 APRIL 2024 ISSN: 2181-3337 | SCIENTISTS.UZ B volume 3 issue 4 – 359p https://doi.org/10.5281/zenodo.11032109

8. Mirzaev Jamshid Turdalievich. Psychological aspects of the influence of internet communication on the social behavior of young people. Science and innovation international scientific journal. VOLUME 3 ISSUE 4 APRIL 2024 ISSN: 2181-3337 | SCIENTISTS.UZ. 174-177 p https://doi.org/10.5281/zenodo.11032109